



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 236 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
<i>Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna</i>	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
<i>Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
<i>Mutallibjonov Boburmirzo</i>	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
<i>Nosirova Feruza Baxadir qizi</i>	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
<i>Gafurova Mahfuza Abbosovna</i>	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
<i>Ravshanova Uldona Narziboyevna</i>	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
<i>Vorisova Barnoxon Olimjon qizi</i>	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
<i>Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
<i>G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi</i>	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
<i>Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna</i>	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
<i>G'ofurov To'liqinjon</i>	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
<i>Ismailova Aziza Dilshodovna</i>	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
<i>Канаатов Есимкан</i>	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
<i>Abdullayev Amirulla Xazratovich</i>	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
<i>Pardayeva Kamola Sultonovna</i>	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
<i>Imomaliyev Quvvat Choriyevich</i>	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
<i>Nurmetov Tursunbek Kenjayevich</i>	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi</i>	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
<i>Mardonov Maqsudbek Maxmudovich</i>	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
<i>Umarova Umidaxon Ibaydullayevna</i>	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	



MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA IQTISODIY TARBIYA BERISHDA STEAM VA AN'ANAVIY USULLARNING QIYOSIY TAHLILI

Boltayeva Nasiba Ilhom qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

“maktabgacha ta’lim” kafedrası mustaqil tadqiqotchisi,

Buxoro innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM texnologiyasi va an'anaviy usullarning samaradorligini qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan. Zamonaviy pedagogik yondashuv sifatida STEAM bolalarga iqtisodiy tushunchalarni amaliy loyiha va tajriba faoliyati orqali o'zlashtirish imkonini beradi, an'anaviy usul esa, asosan, tushuntirish va didaktik o'yinlarga tayanadi. Maqolada ikki usulning didaktik tabiati uchta mezon – bilim, amaliy ko'nikma va qadriyatli munosabat – bo'yicha qiyoslanib, STEAM yondashuvining ustun jihatlari empirik dalillar asosida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, iqtisodiy tarbiya, STEAM texnologiyasi, an'anaviy usul, moliyaviy savodxonlik, qiyosiy tahlil, integratsiyalashgan ta'lim.

Abstract: This article is devoted to a comparative study of the effectiveness of STEAM technology and traditional methods in economic education in preschool educational institutions. As a modern pedagogical approach, STEAM enables children to master economic concepts through practical project-based and experimental activities, whereas the traditional method relies mainly on explanation and didactic games. The didactic nature of the two methods is compared according to three criteria – knowledge, practical skills, and value-based attitudes – and the advantages of the STEAM approach are substantiated based on empirical evidence.

Key words: preschool education, economic education, STEAM technology, traditional method, financial literacy, comparative analysis, integrated learning.

Аннотация: Данная статья посвящена сравнительному исследованию эффективности STEAM-технологии и традиционных методов в экономическом воспитании детей дошкольного возраста. Как современный педагогический подход, STEAM позволяет детям осваивать экономические понятия посредством практической проектной и экспериментальной деятельности, тогда как традиционный метод основан главным образом на объяснении и дидактических играх. Дидактическая сущность двух подходов сопоставляется по трём критериям – знания, практические навыки и ценностное отношение, а преимущества STEAM-подхода обосновываются на основе эмпирических данных.

Ключевые слова: дошкольное образование, экономическое воспитание, STEAM-технология, традиционный метод, финансовая грамотность, сравнительный анализ, интегрированное обучение.

KIRISH

Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida shaxsda iqtisodiy madaniyat va moliyaviy savodxonlik kurtaklarini erta yoshdan shakllantirish dolzarb pedagogik vazifaga aylanmoqda. Maktabgacha yosh – bolaning atrofdagi olamni faol o'rganadigan, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar haqida dastlabki tasavvurlarni egallaydigan sezgir davri hisoblanadi. Aynan shu bosqichda shakllangan tejamkorlik, mehnatga hurmat va oddiy iqtisodiy harakatlar haqidagi tushunchalar kelajakda barqaror iqtisodiy xulq-atvor uchun poydevor vazifasini bajaradi.

An'anaviy maktabgacha ta'lim amaliyotida iqtisodiy tarbiya, asosan, tarbiyachining tushuntirishi, suhbat, rasmi ko'rgazmalar va didaktik o'yinlar orqali amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu yondashuv ma'lum darajada bilim beradi, biroq bolalarda faol izlanish, tajriba o'tkazish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi.

So'nggi yillarda jahon ta'lim amaliyotida keng qo'llanilayotgan STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) texnologiyasi esa bolalarning integratsiyalashgan, loyiha asosidagi va amaliy faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy

tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning samaradorligini qiyosiy o'rganish hamda STEAM yondashuvining ustun jihatlarini empirik dalillar asosida asoslab berish ushbu maqolaning asosiy maqsadini tashkil etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida qator tadqiqotlarda o'rganilgan.

Rus pedagogikasida A.D. Shatova maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tarbiyani axloqiy va mehnat tarbiyasi bilan uzviy bog'liqlikda olib borish g'oyasini ilgari surgan hamda moliyaviy savodxonlik kurtaklarini shakllantirishga oid parsial dasturni ishlab chiqqan.

A.A. Smolentseva esa bolalarni iqtisodiyot asoslari bilan ertak va o'yinlar orqali tanishtirish metodikasini asoslab bergan. Ushbu mualliflarning ishlarida iqtisodiy tushunchalarni bolalarga yaqin, o'yin shaklida taqdim etish g'oyasi yetakchi o'rin tutadi. STEAM yondashuvining nazariy asoslari konstruktivistik psixologiyaga tayanadi.

J. Piaje bola bilimni passiv ravishda qabul qilmay, balki amaliy harakatlar orqali faol ravishda shakllantiradi, degan g'oyani ilgari surgan bo'lsa, L.S. Vigotskiy bola rivojlanishida ijtimoiy muhit, jamoaviy faoliyat hamda yaqin rivojlanish zonasi tushunchalarini ilmiy asoslab bergan.

STEAM modelining zamonaviy konsepsiyasi G. Yakman tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika yagona integratsiyalashgan ta'lim muhitiga birlashtiriladi.

STEM va STEAM yondashuvlarining maktabgacha ta'limga tatbiq etilishi T.V. Volosovets, V.A. Markova va S.A. Averinlarning tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan bo'lib, ular ishlab chiqqan parsial modul dasturi bolalarning bilish faoliyatida intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekiston pedagogikasida ham STEAM yondashuvi bo'yicha ilmiy izlanishlar (N.B. Sherboyeva) olib borilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda STEAM yondashuvi dizayn tafakkurini (design thinking) shakllantirishning samarali didaktik vositasi sifatida ham e'tirof etiladi. Bunda bolada muammoni aniqlash, g'oya ilgari surish, prototip yaratish va uni sinovdan o'tkazib takomillashtirish bosqichlari orqali ijodiy, tanqidiy hamda loyihaviy fikrlash rivojlanadi. Ushbu didaktik imkoniyatlar iqtisodiy tarbiya uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bola "tejamkor quticha yasash" yoki "do'kon tashkil etish" kabi loyihalarni amalga oshirish jarayonida aynan shu bosqichlarni bosib o'tib, iqtisodiy qarorlarni mustaqil loyihalashtirishni o'rganadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy tarbiya hamda STEAM yondashuvi alohida yo'nalishlar sifatida yetarli darajada o'rganilgan bo'lsa-da, aynan maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berish kontekstida STEAM va an'anaviy usullarning samaradorligini qiyoslovchi empirik tadqiqotlar yetarli emas. Ushbu holat mazkur yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM texnologiyasi va an'anaviy usullarning didaktik samaradorligini qiyosiy o'rganishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun, asosan, nazariy tadqiqot metodlari qo'llanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish va qiyosiy tahlil qilish, mavzuga doir nazariy manbalarni tizimlashtirish hamda umumlashtirish, shuningdek, qiyosiy-tarixiy yondashuvdan foydalanildi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ilg'or pedagogik tajribalar ham tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil ikki usulning didaktik tabiatini hamda ularning iqtisodiy tarbiya maqsadlariga mosligini nazariy jihatdan baholashni ko'zda tutadi.

Tahlil quyidagi uchta mezon bo'yicha amalga oshirildi: bilim mezoni (iqtisodiy tushunchalarni – pul, narx, tejamkorlik, mehnat va daromadni – bilish hamda tushunish), amaliy ko'nikma mezoni (oddiy iqtisodiy harakatlarni – sanash, qaytim berish va byudjetni taqsimlashni – bajara olish) hamda qadriyatli munosabat mezoni (tejamkorlik, mehnatga hurmat va resurslarga ehtiyotkorona munosabat). Ushbu mezonlar har bir yondashuvning bola rivojlanishiga ta'sirini kompleks baholash imkonini beradi.

STEAM yondashuvining iqtisodiy tarbiya bilan uyg'unligini uning beshta tarkibiy sohasi misolida ko'rib chiqish mumkin. Tabiiy fanlar (Science) bolada kuzatish, taqqoslash va sabab-oqibat bog'lanishlarini anglash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa mahsulot qiymati va resurslarning cheklanganligi haqidagi dastlabki tasavvurlarni hosil qilish uchun zamin yaratadi. Texnologiya (Technology) bolani oddiy raqamli va kundalik vositalar (tarozi, kassa apparati, narx yorlig'i) bilan tanishtiradi.

Muhandislik (Engineering) loyiha tuzish, rejalashtirish va resurslarni taqsimlash mantiqini o'rgatadi. San'at (Arts) mahsulotni bezash, reklama qilish va taqdim etish orqali ijodiy o'zini namoyon etish imkonini beradi. Matematika (Mathematics) esa sanash, pul birliklarini taqqoslash, qaytimni hisoblash va oddiy byudjet tuzish ko'nikmalarini bevosita rivojlantiradi. Shu tariqa ushbu besh yo'nalish uyg'unlashganda, bola iqtisodiy tushunchalarni alohida elementlar sifatida emas, balki yaxlit hayotiy vaziyatning tarkibiy qismi sifatida idrok etadi. Maktabgacha



yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya alohida fan sifatida emas, balki o'yin, mehnat va badiiy faoliyat jarayoniga integratsiyalashgan holda beriladi. STEAM yondashuvi aynan shu integratsiyani tabiiy ravishda ta'minlaydi: bola "do'kon" yoki "ustaxona" o'yini davomida bir vaqtning o'zida hisob-kitob qiladi, mahsulot yaratadi hamda muloqotga kirishadi. An'anaviy usulda esa ushbu tushunchalar, asosan, tarbiyachining og'zaki tushuntirishi va tayyor namunalar orqali o'rgatiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar hamda amaliyot tahlili asosida ikki usulning asosiy xususiyatlari quyidagi mezonlar bo'yicha qiyoslandi (1-jadval). Qiyoslash har bir yondashuvning didaktik tabiatini hamda uning iqtisodiy tarbiya maqsadlariga muvofiqligini baholashni ko'zda tutadi.

1-jadval: An'anaviy usul va STEAM yondashuvining qiyosiy belgilari

Mezon	An'anaviy usul	STEAM yondashuvi
Bola roli	Tinglovchi, tayyor bilimni qabul qiluvchi	Faol tadqiqotchi, loyiha ishtirokchisi
Bilim manbai	Tarbiyachi tushuntirishi, ko'rgazma	Amaliy faoliyat, tajriba va kashfiyot
Asosiy faoliyat	Suhbat, didaktik o'yin, takrorlash	Loyiha, modellash, prototip yaratish
Shakllanadigan ko'nikma	Asosan nazariy bilim, eslab qolish	Bilim, amaliy ko'nikma va qadriyatli munosabat
Motivatsiya	Tashqi (tarbiyachi yo'naltiradi)	Ichki qiziqish, o'yin va natija quvonchi

Jadvaldan ko'rinadiki, an'anaviy usul iqtisodiy tushunchalar haqida dastlabki bilim berishda qulay, biroq u ko'proq reproduktiv xususiyatga ega. STEAM yondashuvi esa bilim, ko'nikma va qadriyatli munosabatni bolaning faol ishtiroki orqali uyg'un holda shakllantiradi. Ikki yondashuvni yuqorida belgilangan uchta mezon bo'yicha nazariy jihatdan qiyoslash quyidagi xulosalarga olib keladi. Bilim mezoni bo'yicha har ikkala usul ham muayyan natija beradi: an'anaviy usul iqtisodiy tushunchalarni tarbiyachining tushuntirishi va ko'rgazmali vositalar orqali tizimli ravishda yetkazsa, STEAM yondashuvi ayni shu tushunchalarni amaliy vaziyatlar – "do'kon" yoki "oilalardagi byudjet" loyihalari davomida – kontekst bilan bog'liq holda o'zlashtirish imkonini beradi. Shu sababli STEAM asosida o'zlashtirilgan bilim bolaning xotirasida mustahkamroq saqlanadi, chunki u quruq ta'rif emas, balki shaxsiy tajriba bilan uzviy bog'langan bo'ladi. Amaliy ko'nikma mezoni bo'yicha ikki usul o'rtasidagi farq eng yaqqol namoyon bo'ladi. An'anaviy usulda bola, asosan, tinglovchi mavqaida bo'lib, sanash, qaytim berish yoki byudjetni taqsimlash kabi harakatlarni bevosita mashq qilish imkoniyati cheklangan. STEAM yondashuvi esa bolani aynan amaliy faoliyatga undaydi: u mahsulotga narx belgilaydi, pulni sanaydi, qaytim beradi va resurslarni taqsimlaydi. Aynan shu bevosita faoliyat tufayli iqtisodiy ko'nikma nazariy bilimdan amaliy malakaga aylanadi. Demak, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda STEAM yondashuvi an'anaviy usulga nisbatan sezilarli ustunlikka ega.

Qadriyatli munosabat mezoni bo'yicha ham STEAM yondashuvining imkoniyatlari kengroq. Tejamkorlik, mehnatga hurmat va resurslarga ehtiyotkorona munosabat kabi qadriyatlar quruq nasihat orqali emas, balki bolaning shaxsiy kechinmalari orqali samaraliroq shakllanadi. "Tejamkor quticha" loyihasida bola jamg'arish jarayonini o'zi boshdan kechiradi, "Pul qayerdan keladi?" o'yinida esa mehnat va daromad o'rtasidagi bog'liqlikni amalda his etadi. An'anaviy usul ushbu qadriyatlarni tushuntirib bera oladi, biroq ularni hissiy tajribaga aylantirishda STEAM yondashuviga nisbatan kamroq imkoniyatga ega. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, STEAM yondashuvi maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy tarbiya berishda an'anaviy usulga nisbatan didaktik jihatdan boyroq va samaraliroq imkoniyatlarga ega. Uning ustunligi, ayniqsa, amaliy ko'nikmalar va qadriyatli munosabatni shakllantirishda yaqqol namoyon bo'ladi, bilim mezoni bo'yicha esa har ikki usul bir-birini to'ldiradi. Shu bois ularni qarama-qarshi qo'yish emas, balki o'zaro uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir. An'anaviy suhbat va didaktik o'yinlar tushunchaviy poydevor yaratsa, STEAM loyihalari ushbu bilimlarni amaliyot bilan boyitadi hamda qadriyatli munosabatni shakllantiradi. Aynan shunday integratsiyalashgan yondashuv iqtisodiy tarbiyaning yaxlitligi va uzluksizligini ta'minlaydi.

XULOSA

Olib borilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM texnologiyasi an'anaviy usulga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq hisoblanadi. STEAM yondashuvi bolalarda nafaqat iqtisodiy bilimlarni, balki amaliy ko'nikmalar va qadriyatli munosabatni ham birgalikda shakllantiradi. An'anaviy usul ham muayyan samara beradi, biroq u, asosan, reproduktiv xususiyatga ega bo'lib, nazariy bilimlar bilan cheklanadi. Shu asosda maktabgacha ta'lim amaliyotiga STEAM asosidagi integratsiyalashgan loyiha-mashg'ulotlarni an'anaviy usullar bilan uyg'unlashtirgan holda joriy etish, tarbiyachilarni



ushbu texnologiyadan foydalanishga tayyorlash hamda uslubiy ta'minotni takomillashtirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Kelgusi tadqiqotlarda tadqiqot namunasining ko'lamini kengaytirish va uzoq muddatli kuzatuvlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Шатова А.Д. Экономическое воспитание дошкольников: формирование предпосылок финансовой грамотности: парциальная образовательная программа для детей 5–7 лет. – М.: Министерство образования и науки РФ, 2018. – 28 с.
2. Шатова А.Д. Экономическое воспитание дошкольников. – М., 2005. – 248 с.
3. Смоленцева А.А. Знакомим дошкольника с азами экономики с помощью сказок. – М.: АРКТИ, 2006. – 88 с.
4. Волосовец Т.В., Маркова В.А., Аверин С.А. STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста: парциальная модульная программа. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2019. – 112 с.
5. Yakman G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education. – Pupils Attitudes Towards Technology (PATT) 2008 Annual Proceedings. – Salt Lake City, 2008. – P. 1–28.
6. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
7. Шербоева Н.Б. Внедрение STEAM-технологий в образование для детей дошкольного и школьного возраста// Proceedings of MMIT'24 International Conference. – 2024. – 28 May. – С. 156–158.
8. Mamadaminova M.M., Boboxonova Sh.R. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini dizayn tafakkuriga o'rgatishda STEAM yondashuvining didaktik imkoniyatlari // Maktabgacha va maktab ta'limi. – 2025. – № 11. – B. 454–458.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.